

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING UMUMIY SUG'URTA TARMOG'I BO'YICHA HOZIRGI HOLATI VA UNING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI

Oripov Akbar Amonjonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya bozori va sug'urta ishi" kafedrasi o'qituvchisi

email: oripovakbar764@gmail.com

ARTICLE INFORMATION

Volume: 1

Issue: 9

DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss9/a3

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozorining umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha so'nggi yillardagi ko'sratkichlari dinamikasi ya'ni sug'urta kompaniyalari tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlari va to'langan sug'urta tovonlari hajmi yoritilgan hamda tahlil qilingan. Shuningdek sug'urta bozorining rivojlanishidagi mavjud muammolar yoritilib, ularning yechimi bo'yicha takliflar berib o'tilgan.

KEYWORDS

Umumiy sug'urta, qayta sug'urtalash, sug'urta mukofoti, sug'urta tovoni, obligator qayta sug'urtalash.

Kirish (Introduction/Введение)

Iqtisodiy islohotlar sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlanish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqdaki, buni e'tiborga olgan holda sug'urtalash, qayta sug'urtalash va boshqa moliyaviy xizmatlar hajmini ularning yangi turlarini joriy qilish va sifatini oshirish hisobidan kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "2022-2026- yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi" da qishloq xo'jaligidagi davlatmonidan qo'llab-quvvatlash ko'lамини kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish hamda mehnat migrantlarini moliyaviy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning hayoti va sog'lig'ini sug'urtalash amaliyotini kengaytirish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Sug'urta xizmatlari iqtisodiyotning barqarorligi hamda aholi ijtimoiy himoyasining muhim omillaridan biri bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va iqtisodiy o'shning asosiy omili sifatida amal qilmoqda.

Zamonaviy davrdagi globallashuv jarayonida sug'urta bozorining innovatsion rivojlanishi jadal o'zgarishlar qamrovida kechayotganligi mazkur institut faoliyatini nazariy-amaliy tadqiq etish dolzarb ekanligini anglatadi. Sug'urta bozori har qanday mamlakat iqtisodiyotining asosiy segmenti hisoblanadi, ayni vaqtida, bevosita uning ravnaqiga ham xiznat qiladi. Shu bilan birgalikda qayd etish lozimki, sug'urta faoliyati o'ziga xos tarzda shakllangan va keng qo'llanilayotgan ijtimoiy hodisa bo'lib, barqarorlik omili sanaladi. Mamalakat sug'urta bozori rivojini proqnozlash o'z navbatida, biznes sub'ektlari va aholi manfaatlari himoyasini kafolatli darajada ta'minlash instituti sifatida sug'urta faoliyatini rivojlanish yo'nalişlarini tadqiq etish zaruratinı keltirish chiqardi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. (Literature review, Анализ литературы).

Sug'urtaning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati qator olim larning ilmiy ishlari o'zaksini topgan.

Sug'urta sohasidagi Rossiyalik taniqli olim R.T. Yuldashevning fikriga ko'ra, "sug'urta" tushunchasi uni qo'llashning nazariy va amaliy tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan quyidagi to'rtta bazaviy xususiyatga ega, deyta'riflaydi:

1) ijtimoiy munosabatlardizimi;

2) faoliyat turi;

3) biznes turi;

4) mulkiy manfaatlarni himoya qilish usuli [1].

R.T. Yuldashevning fikriga ko'ra, sug'urta faoliyati pul fondini (sug'urta fondini) tashkil etish bo'yicha tadbirlar tizimini amalga oshirishni hamda sug'urta shartnomasida ko'zda tutilgan hodisa yuz berishi natijasida sug'urta shartnomasida sug'urta fondiga badal to'lagan shaxs) yetkazilgan zararni qoplab berishni ko'zda tutadi. Sug'urta faoliyati sub'ektlari sifatida sug'urta kompaniyalari, o'zaro sug'urtalash jamiyatlar, hamda o'z-o'zini sug'urtalash fondlarini tashkil etuvchi korxonalar ishtirot etishi mumkin [2].

Taniqli rossiyalik olim N.B. Grishenkonning quyidagi so'zlarini keltirish joizdir: "Sug'urta hozirgi zamон iqtisodiy voqelegining mustaqil va o'ziga xos sohasi bo'lib, uning paydo bo'lish, amal qilish va rivojlanish printsiplari iqtisodiy nazariyalar va qarashlarda o'z aksini topadi" [3].

Rossiyalik tadqiqotchi T.A. Merebashvili o'z tadqiqotlarida quyidagi xulosaga keladi: "sug'urta tijorat va o'zaro yordam tushunchalarining uyg'unlashuv shunday xulosha qilishga imkon beradi, ya'ni o'z tabiatiga ko'ra tijoratga asoslangan sug'urta bir vaqtning o'zida o'zaro yordam xususiyatiga ega bo'lishi va o'zaro sug'urta bir vaqtning o'zida tijorat xususiyatlarini ham o'zida mujassamlashtirishi kerak, aks holda, u sug'urta emas" [4].

Sugurta bozorining rivojlanish nazariyasi muammolari Y.T. Axvediani,

N.B. Grishchenko, S.V. Ermasov, Y.A. Spletuxin, T.A. Fedorov, A.K. Shixov, V.A. Sherbakov, R.T. Yuldashev, K.R. Makkonnell, S.L. Bryu kabi olimlarning tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

A.K. Shixovning fikriga ko'ra, sug'urta bozori bu kutilmagan hodisalar yuzaga kelganda mulkiy qiziqishlari himoyalananishiga muhtoj bo'lgan sug'urta qildiruvchilar (sug'urtalangan shaxs, naf oluvchi) hamda mana shu himoyani to'langan sug'urta mukofotlaridan tashkil etilgan sug'urta fondi hisobidan amalga oshiradigan sug'urta qoplamasini sotib olish va sotish boyicha yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardizimi [5].

R.T. Yuldashev esa sug'urta bozoriga quyidagicha ta'rif bergan: sug'urta bozori - bu sug'urta himoyasiga bo'lgan jamiyat ehtiyojlari qondirish jarayonida sug'urta qoplamasini sotib olish va sotish boyicha yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardizimi [6].

K.R. Makkonnell va S.L. Bryulaming ta'rifiga ko'ra sug'urta bozori – bu sug'urta qildiruvchi va sug'urta bozorining sug'urta xizmatlari bilan bog'liq qiziqishlarini birlashtiruvchi iqtisodiy mexanizmdir[7].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalilanigan usullar (Methods/Методы).

Ilmiy maqolada globallashuv sharoitida mamlakatimiz sug'urta bozorining hozirgi holati va salohiyatini o'rganish hamda undan samarali foydalananish yo'llarini, shuningdek unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish, tadqiqot natijalarini tizimlashtirish asosida ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induktsiya va deduktsiya, tizimli va qiyosiy tahsil, grafik tasvirlash va iqtisodiy-statistik usullardan keng foydalaniildi.

Olingan natijalar (Results/Результаты).

Olib borilgan tahlillar natijasida umumiy sug'urta tarmog'ining sug'urta bozoridagi o'rni va yillar kesimidagi o'sish dinamikasi ko'rsatib berilgan. Shu bilan birga, sug'urta bozorining rivojlantishiga to'siq bo'layotgan omillar hamda ularni bartaraf etish yo'llari asoslab berilgan.

Tahlillar (Analysis/Анализ).

O'zbekistonda sug'urta xizmatlari bozorining samaradorligini oshirish yurtimizning makroiqtisodiy barqarorligi va iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdagi eng muhim tamoqlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda sug'urta bozorini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar muayyan darajada, mamlakat sug'urta bozorini rivojlantirishga xizmat qilayotgan bo'lsada, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda sug'urta bozorini rivojlantirish borasida aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish sug'urta munosabatlarini rivojlantirishga va mamlakatda ishlab chiqarish uzlusizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda sug'urta sohasi so'nggi yillarda jadal rivojlanib bormoqda. Yurtimizda sug'urta kompaniyalari soni yildan yilga ortib bormoqda. Bugunga kelib 43 ta sug'urta kompaniyalari faoliyat yuritib kelmoqda, shulardan 35 tasi umumiy sug'urta sohasi 8 tasi hayot sug'urtasi sohasi kompaniyalari hisoblanadi. Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston sug'urta bozorining tuzilishiha so'nggi to'rt yil ichidagi o'zgarishlarni ko'rib chiqamiz[8].

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozorining tuzilishi	2020	2023	O'zgarish
Sug'urta bozori tuzilishi			
Sug'urta tashkilotining soni	40	43	+3
<i>shu jumladan hayot sug'urtasi bo'yicha</i>	8	8	0
Sug'urta tashkilotlarda umumiy ustav kapitali (mln so'mda)	1 439 193	2 298 572	+859 379 (+59,7%)
Sug'urta brokerlar soni	5	8	+3
Aktuariylar soni	5	5	0
Sug'urta agentlar soni	8 900	4 736	-4 164 (-46,8%)
To'lovlarни kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlari soni 7 ta'ko'paygan.	19	26	+7


Jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta kompaniyalari soni oxirgi to'rt yil ichida 3 taga ko'paygan. Sug'urta bozoridagi sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali sezilarli darajada, ya'nii 59,7% ga oshgan. Sug'urta brokerlar soni 3 taga ko'paygan. Sug'urta agentlari soni esa 46,8% ga kamaygan. To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlari soni 7 ta'ko'paygan. [9].

Ma'lumki sug'urta kompaniyalarining asosiy daromad manbayi bu sug'urta mukofotlari hisoblanadi. O'zbekiston sug'urta bozorida so'nggi to'rt yilga nazar tashlaydigan bo'lsak sezilarli darajadagi o'sish dinamikasiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Yuqoridaqdi diagrammadan ko'rinish turiptiki umumiy sug'urta sohasidagi yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi so'nggi to'rt yilda jadal sur'atlarda o'sgan. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizsda sug'urta xizmatlariga bo'lgan talab yildan yilga jadal o'sib borayotganidan dalolat beradi. 2020-yilda yig'ilgan sug'urta mukofotlari hajmi 1 879 346 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 59,4 % ga o'sib 2 995 707 mln. so'mga yetgan. 2022-yilda esa 56% ga o'sib 4 672 270 mln. so'mga yetgan va 2023-yilda 65,6% lik o'sishga erishlib jami 7 737 236 mln. so'mlik sug'urta mukofotlari yig'ilgan. [10].


Sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi, ushbu xizmatlarga bo'lgan ishchong'a bevosita bog'liqdir. Bu esa sug'urta hodisalarini bo'yicha sug'urta to'lovlarining vaqtida amalga oshirilishi zarurligini bildiradi. Mamlakatimiz sug'urta bozorida ushbu ko'rsatkich bo'yicha ham so'nggi yillardagi o'sish sur'atlarini kuzatishimiz mumkin.

2020-yilda umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta kompaniyalari tomonidan jami



1-rasm. Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta mukofotlari dinamikasi (mln. so'mda).

419 628 mln. so'm sug'urta to'lovlarini to'lab berilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 45,4% ga o'sib 609 953 mln. so'mga yetgan. 2022-yilda esa yana 77,5 % ga o'sib 1 087 567 mln. so'mga yetgan va 2023-yilda 44,2% ga o'sib 1 568 461 mln. so'mga yetgan. [11].



2-rasm Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta to'lovlarini dinamikasi (mln. so'm).

Xulosa (Conclusions/Заключения).

O'tkazilgan tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, umumiy sug'urta tarmog'i bo'yicha sug'urta bozori o'sish dinamikasiga ega. Ammo sug'urta bozorining imkoniyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak bundan yuqori natjalarga erishish mumkin. O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlantirish chora-tadbirlar majmuasiga quyidagi takliflar kiritildi:

- aholining sug'urta madaniyatini rivojlantirish bo'yicha 3 yillik faol reklama va marketing kompaniyasini o'tkazishni nazarda tutuvchi keng ko'lamlı Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

- kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini sug'urta institutiga quyidagilar yordamida faol jalb etish:

- a) chikik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini vakillarini qiziqtiradigan ishchonchli, zamonaviy sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish;

- b) sug'urta xizmatlarining maqsadli marketingini o'tkazish;

- v) sug'urtanigan ushbu istiqbolli yo'nalishini rivojlantirish uchun davlat miqyosida rag'batlantiruvchi omillarni joriy etish.

- sug'urta biznesini kichik va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini va aholi kesimida raqamlashtirish bo'yicha kompleks rag'batlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatishning asosiy hajmini onlayn rejimga o'tkazish.

- sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urta majburiyatlarini bajarishning aniq, tiniq va qa'iy qoidalarini ishlab chiqish, shuningdek, majburiyatlar buzilgan taqdirda sug'urta tashkilotlarining majburiyatlarini qat'iy qoidalar asosida so'zsiz bajarishni nazarda tutuvchi qattiq jazo choralarini qo'llash, sug'urta kompaniyalarining mijozlari o'zlarining manfaatlarini himoya qilish bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqishning puxta o'ylangan tartiblarini ishlab chiqish.

- qayta sug'urtalash tizimini rivojlantirish, obligator qayta sug'urtalash tizimini rivojlantirish, kompaniyalarning xalqaro reytinglar olishini rag'batlantirish.

References:

1. Юлдашев Р.Т. Очерки теории страхования: ретроспективный анализ развития. - М.: Аникil, 2015. С. 89
2. Юлдашев Р.Т. Очерки теории страхования: ретроспективный анализ развития. - М.: Аникil, 2015. С. 93
3. Грищенко Н.Б. Понятие страхового фонда в современной рыночной экономике. Страховоедело. 2012. №11.
4. Меребашвили Т.А. Правовые проблемы взаимного страхования ответственности судовладельцев. - СПб.:Издательский дом С.-Петербург.гос.ун-та, 2014 г. С.17
5. А.К. Шихов. Страхование: учебник / Под ред. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2019.
6. Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес. Словарь-справочник. М.: Аникil, 2015. С. 832.
7. К.Р. МакКоннелл, С.Л. Брю. Развитие коммерческого страхования в постцентрализованной экономике: методология и практика. Диссертация на соискание Д.Э.Н. – Екатеринбург, 2017
8. HeIfcr R.T. What Deposit Insurance Can and Can not Do. Finance and Development. Vol. 128. 2019
9. Baratova, D., & Olmosova, M. (2023). Sug'urtalovchilarning investitsion faoliyatini baholashda xitoy tajribasi. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 35–38. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss4/67
10. Кўлдошев, К. (2023). Ўзбекистон сугурта бозори: ривожланиш йўналишлари ва муаммолар. Страховой рынок Узбекистана, 1(4), 1–4. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss4/55
11. Баратова , Д. (2024). Ҳаётсугуртасининг аҳоли ижтимоий ҳимоясини таъминлашдаги ўрни. Страховой рынок Узбекистана, 1(7), 14–16. https://doi.org/10.55439/INS/vol1_iss7/111..